

CRITICAL ANALYSIS OF SOME TEACHING METHODS (IN THE EXAMPLE OF LITERATURE LESSONS)

Shodiyeva Ruxsora

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti magistratura bo'limi 2-kurs talabasi

Bizga ma'lumki, bugungi kun ta'lif jarayonini to'g'ri tashkil etish va samarali natijaga erishish ta'llim tizimining eng ustuvor masalalaridan biridir. Darslarni tashkil etishda ilg'or texnologiyalardan va interaktiv metodlardan oqilona foydalanish pedagog uchun ustuvor vazifadir. Nazariy bilimlari yuqori bo'lgan o'qituvchilar ham ba'zan darslarni tashkil etish va o'quvchilarga bilim berishda metodik ko'nikmasining oqsagani sababli turli qiyinchiliklarga duch kelishi hech kimga sir emas. Bugungi kun ta'llimi o'quvchilardan passiv tinglovchi emas, balki izlovchi, qiyoslovchi va tahlil qila oluvchi bo'lishni talab etadi. Albatta, bu borada pedagoglarning ham o'rni va ahamiyati juda kattadir. Darsga va o'quvchining yosh-psixologik xususiyatlariga mos keluvchi metod tanlash va undan samarali foydalanish pedagogning mahoratini ko'rsatib beradi.

Ta'lif metodlari voqelikni qamrab olish jihatidan 3turga bo'linadi:

1. Yalpi umumiyligi ta'lif metodlari-hamma fanlarda va ta'lifning barcha bosqichlarida qo'llaniladigan umumiyligi va universal metodlar;
2. Umumiyligi ta'lif metodlari-bir qancha yoki barcha fanlarda qo'llaniladigan va bilishning muayyan bosqichlarida qo'llaniladigan metodlar;
3. Xususiy yoki maxsus metodlar-faqat ayrim fan doirasida qo'llaniladigan metodlar(1).

Dars davomida qo'llangan barcha metodlar har doim ham kutilgan natija beravermasligi mumkin. Faqatgina unumli foydalanilgan metodlarning samarali natija berishi mumkin. Metodlarning afzalliklari, kamchiliklari va tashkil etish uchun kerakli ko'rsatmalar mavjud.

Quyida adabiyot o'qitishda qo'llaniladigan ba'zi metodlarning tanqidiyligi tahlilini keltirib o'tamiz:

1. "Savol-javob yoki aqliy hujum metodi".

Bu metod umumiyligi ta'lif metodlaridan biri bo'lib deyarli barcha fan doirasida qo'llash mumkin.

Afzalliklari:

- fikr-mulohazalarni aniqlab olish;
- o'quvchilar bilimini imtihon qilish;
- o'rganuvchilarni dars jarayoniga jalb etish;
- vaqtadan unumli foydalanish;

Kamchiliklari:

- o'quvchilarning barchasini jalb qilish imkoniyati cheklangan;
- noto'g'ri savollar berish xavfli;
- o'quvchilarning bahosi xolis bo'lmasligi mumkin;

Savol berish qoidalari:

- savolni aniq va tushunarli ifodalash;
- so'roq so'zlarni o'z o'rnida qo'llash;
- savolni avval butun guruhga qarata aytish, so'ngra savolga javob beradigan o'quvchining ism-familiyasini aytish;
- zanjirband va alternativ savollarni bermaslik.

2. "Suhbat metodi"

Bu metod biror mavzu yoki o'qilgan asarni tahlil qilishda qo'llaniladigan eng muhim metodlardan biridir.

Afzalliklari:

- muhokama qila olish qobiliyatini shakllantiradi;
- o'z fikrini isbotlay olish va himoya qilish ko'nikmasini hosil qiladi;
- boshqalar fikrini tinglash va xulosa qilish imkoniyatini rivojlantiradi;
- fikrga qarshi fikr orqali do'stona bahslashish madaniyatini shakllantiradi;

Kamchiliklari:

- ba'zida bahs-munozara me'yoridan oshib ketishi mumkin;
- muhokama uchun tanlangan mavzu ijtimoiy va diniy kelib chiqishga ta'sir qilishi mumkin(mavzu tanlash o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq);

Tashkil etish qoidalari:

- muhokama uchun tanlangan mavzu dolzarb va hammabop bo'lmos'i lozim;
- har bir o'quvchining fikri(xoh to'g'ri xoh noto'g'ri bo'lsin) tinglanishi zarur;
- o'zaro erkin fikr almashish va muhokama qilish uchun zamin yaratish lozim;
- tanlangan mavzu va fikr-xulosalar o'quvchilar munosabatiga ta'sir etmasligi shart.

3. "FSMU texnologiyasi"

Bu metod biror mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini yozma baholash va ularning umumiyl fikrlarini bilish imkoniyatini beradi. Ta'limning deyarli barcha yo'nalishlarida qo'llash mumkin.

Afzalliklari:

- o'quvchilar yozmq nutqi va imlosini rivojlantirish imkonini beradi;
- o'z fikrlarini tasdiqlovchi va inkor etuvchi fikrlarni erkin va mustaqil bayon eta olish imkoniyatini beradi;
- biror mavzu yoki bo'lim yuzasidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va xulosalash imkonini beradi;
- bahslashish va muhokama qilish madaniyatini shakllantiradi;

Tashkil etish qoidalari:

- bir necha o'xshash va yondosh mavzular yuzasidan savollar tayyorlash zarur;
- o'zaro ochiq holda bahslashish mumkin;
- javob olish va muhokama qilish bosqichlarini ikki martada o'tkazish samarali natija beradi;
- har kim o'z fikrini himoya qilishiga va isbotlashiga imkoniyat yaratib berish zarur;

4. "Birgalikda o'qiyimiz metodi".

Bu metod o'quvchilarning bilimini umumiyl asosida guruhlash orqali sinash va baholash imkonini beradi.

Afzalliklari:

- o'quvchilarni guruh bo'lib ishlashga o'rgatadi;
- boshqarish va bajarish ko'nikmasini hosil qiladi;
- og'zaki nutqni rivojlantiradi;
- notiqlik va o'z fikrini og'zaki tarzda aniq ifodalay olish mahoratini shakllantiradi;

Tashkil etish qoidalari:

- o'quvchilarni 3-5kishidan iborat kichik guruhlarga bo'linadi;
- barcha guruhlarga bir xil yoki o'xshash topshiriqlar beriladi;
- guruhdagi o'quvchilar umumiyl topshiriqni guruh ichida o'zaro taqsimlaydilar;
- mini-ma'ruzalar tashkil etiladi;
- guruh notig'i yoki guruhning barcha a'zolari o'z topshiriq natijalarini taqdim etishadi.

Kamchiliklari:

- dars jarayonida shovqin va tartibsizlik yuzaga kelishi mumkin;
- vaqt yetmay qolish imkoniyati yuqori.

Hozirgi kun dars jarayonida o'quvchi passiv tinglovchidan aktiv ishtirolchiga aylanishi darsning samarasini yanada oshiradi(2).

Shuning uchun ham darslarni tashkil etishda o'quvchining darsga ishtiroki, shaxsiy fikrlari va muhokamada ishtiroki mavzu va darsning yuqori natijaga erishishi uchun muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlari:

1. O'zbekiston milliy endiklopediyasi 1-jild. 2000-yil
2. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent-2006.
3. www.ziyo.net
4. www.library.navoiy-uni.uz